

This is not registered version of TotalDocConverter.

Bolalar shog'rtirishda qo'shni xovlida bir qancha yoshlarni yashardi. U o'n ikki yoshlar chamasi bo'lib, biz maktabga boradigan maxalda o'z uyining tomiga chiqar va xovlimizni tomosha qilib o'tirar edi. Kimdir o'ziga nigoh tashlayotganligini sezsa, shu zahotiy o'zini panaga olar, negadir odamlarning ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilar edi. Bazan dadamga:

-Dadajon, anovi bolaning qo'li yo'q ekan. Shuning uchun maktabga olishmagan ekan, - derdim men. Dadam esa afsus bilan boshini sarak-sarak qilib qo'yardi.

Bir kuni kechqurun dadam yerto'lada yotgan siniq stol-stulni olib chiqdi va bolg'a-mix olib tamirlashga tushdi. Stol "oyoqchali bo'lgach, xovlining qoq o'rtasiga o'rnatdi.

-Qani, qizim, beri kel! vB“ deya chaqirdi dadam. vB“ Bugundan boshlab men o'zim mana shu joyda senga dars beraman.

Shunday qilib kechalari dadamning qo'li ostida dars qiladigan boldim. Qor yoki yomgirli kunlardan tashqari har kuni dadam menga shaxsiy muallimlik qilar edi. U qolimga kitob tutqazarkan:

-Qani bugun maktabda o'rganganlaringni baland ovozdada o'qib ber-chi, - derdi.

Men esa vaqt allamaxalga qadar kuchanib-kuchanib kitob mutolaa qilardim.

Bir kuni dadam ishdan kelib, gap topib keldi:

-Qizim, qo'shni bola bu yerdan ko'chib ketarkanmi?

Kunduzi qo'shni xovli oldida yuk mashinasini ko'rgandim.

-Ha, shunaqa bo'lsa kerak, dedim men.

-Tushunarli, - dedi dadam afsus bilan. vB“ Ishqilib qaerga borsa ham o'qishni tashlab qo'ymasinda bolakay.

Men dadamning so'nggi so'zlarini unchalik tushunmadim. Lekin buni oradan bir necha yil yillar o'tgachgina angladim.

Kunlarning birida uyimizga pochta orqali bir quticha olib kelishdi. Yuboruvchining nomi ham, manzili ham nomalum. Dadam hayronligini yashirolmay qutichani asta ochdi. Qutichadan yangi bir kitob va xat chiqdi.

"Yigirma yil avval sizga qo'shni xovlida yashagan bir nogiron bolani eslay olasiz, deb umid qilaman, deb boshlanadi xat.

"O'shanda xovlingizda qizingiz bilan olib borgan darslaringizni yashirincha kuzatib, juda qiziqqanligimdan tomida o'tirib talim olgan edim. Kech bo'lasa-da minnatdorchiligimni qabul qiling.

O'sha nimjogina nogiron bolakay dadamning xovlidagi darslarini eshitib, o'rganib, bu yerdan ko'chib ketgandan so'ng hatto universitetga o'qishga kiribdi. Qutichadagi kitobni o'sha nogiron bola yozganligiga ishongim kelmasdi. O'sha kuni dadamning xonasidagi chiroq tonggacha o'chmadi.